

Date: 7th December-2025

O'ZBEKISTON AYOLLAR HUNARMANDCHILIGINING TARIXIY-MADANIY
ASOSLARI VA IJTIMOIIY AHAMIYATI

Samijonova Mohira Bozorvoy qizi

Namangan Davlat Universiteti

Ttarix mutaxassisligi II- kurs magistranti

Mohi26505@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar hunarmandchiligi O'zbekistonning madaniy merosi va iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutishi, shuningdek, hunarmandchilik orqali an'anaviy san'at turlari bo'lmish, kashtachilik, zardo'zlik, atlas-adras, gilamlar to'qish, milliy liboslar tikish, milliy bezak, chitgarlik kabi san'at turlarini saqlab qolishga va davom ettirish, ayollarni ish bilan ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, oilaviy iqtisodiyotiga ko'maklashishi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Hunarmandchilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik, tikuvchilik, madaniy meros.

HISTORICAL AND CULTURAL FOUNDATIONS AND SOCIAL SIGNIFICANCE
OF WOMEN'S HANDICRAFTS IN UZBEKISTAN

Annotation: This article discusses the significant role of women's handicrafts in Uzbekistan's cultural heritage and economic life. It explores how traditional art forms such as embroidery, gold embroidery (zardozi), atlas and adras weaving, national clothing production, and ornamental design are preserved and continued through women's craftsmanship. Additionally, the article highlights how handicraft activities contribute to women's employment, meaningful use of their free time, increased social engagement, and support for family economies.

Key words: Handicraft, Embroidery, Carpet weaving, Gold, mbroidery Sewing, Cultural heritage.

Kirish: O'zbekiston hududi qadimdan hunarmandchilik, amaliy san'at va badiiy an'analarning yuksak darajada rivojlangan makoni sifatida tanilgan. Mamlakatning madaniy merosi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, unda ayollar hunarmandchiligi alohida o'rin tutadi¹. Kashtachilik, zardo'zlik, atlas-adras to'qish, gilamdo'zlik, kandakorlik kabi hunarlar nafaqat maishiy ehtiyojni qondirgan, balki xalqning estetik qarashlari, dunyoqarashi, didi va qadriyatlarini mujassam etgan badiiy faoliyat sifatida shakllangan. Ayollar tomonidan yaratilgan ushbu amaliy san'at namunalarida milliylik, nafislik, mahorat va estetik uyg'unlik o'z ifodasini topgan.

Asosiy qism: Hunarmandchilik insoniyat tarixidagi eng qadimiy kasblardan bo'lib, u xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini va turmush tarzini ifoda etadi. O'zbekistonda esa

¹ Gulyamov, Ya. O'zbek xalq hunarmandchiligi tarixi. Toshkent: Fan, 1982.

Date: 7th December-2025

hunarmandchilik nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki milliy o'zlikning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Hunarmandchilik sohasida ayollar azaldan muhim o'rin egallagan, ayniqsa, kashtachilik, gilamdo'zlik, tikuvchilik, zardo'zlik va to'qimachilik sohalarida ularning o'rni katta bo'lgan. Ayollar asrlar davomida turli hunar turlarini avlod-dan-avlodga yetkazib kelgan².

Xususan: Kashtachilik: Ayollar tomonidan kiyim-kechak, ro'mol, yosti-q jildlari, ko'rpa, parda singari buyumlar ustiga nafis naqishlar tikilgan. Buxoro, Samarqand, Namangan, Farg'ona viloyatlarida o'ziga xos uslub va yo'nalishlar shakllangan.¹ Shuningdek, O'zbekiston hududida bir nechta mahalliy badiiy kashtado'zlik markazlari shakllangan bo'lib, ularning har birida o'ziga xos estetik qoidalar bo'lgan³.

Gilamdo'zlik: Ayniqsa, Qashqadaryo va Surxondaryoda ayollar gilam to'qish bilan shug'ullangan. Har bir naqsh o'z ma'no-mazmunga ega bo'lgan.² O'zbekiston hududida gilam ishlab chiqarish asosan aholining chorvachilik bilan shug'ullanadigon, ko'chmanchilik turmush tarzi bilan yashaydigon va Buyuk dasht madaniyati an'alarini saqlab qolgan qismiga xos bo'lgan. Gilamlar va paloslarni qadim zamonlardan buyon o'tovlarning yeriga to'shshagan, isitish uchun devorlariga qoplashgan, basqur nomli naqshli gilam tasmlar bilan bezatilgan. Shu bilan birga, gilamlar shahar va qishloq aholisining kundalik hayotida ham keng ommalashgan.³

Atlas-adras to'qish: Farg'ona vodiysida ayollar bu sohada usta darajasiga yetgan. Atlas va adras matolari o'zbek milliy kiyimlarining asosini tashkil etadi.⁴ O'zbek ipak matolari nozik did bilan ishlanib, bir-biridan keskin farq qiluvchi ranglarning uyg'unligi bilan kishilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Xalq afsonalariga ko'ra, xonatlasning eng dastlabki naqshlari hovuzning ko'zguga o'xshash yuzasida aks etgan, osmon bo'ylab suzib yurgan pag'a-pag'a bulutlarga taqlid qilingan holda chizilgani manbaalarda aytiladi⁴.

Zardo'zlik va tikuvchilik: Buxoro va Toshkentda zardo'z ayollar oltin va kumush iplar bilan tikuvchilik ishlarini mukammal bajarib, buyurtma asosida ishlaganlar.⁵ Zardo'zlik san'ati o'zining rivojlanish tarixi davomida so'nmas shon-shuhrat qozongan⁵.

XX asr davomida zardo'zlik jamiyatda yuzaga kelgan turli ijtimoiy o'zgarishlarga qaramay rivojlanishda davom etgan. Ayollar tomonidan amalga oshirilgan hunar ishlari ko'pincha oilaning asosiy daromad manbai bo'lgan. Bu hunarmandchilik faoliyatlarini avlod-dan-avlodga usta-shogird an'anasi asosida davom ettirganlar. Ayollar o'z san'atalari orqali esa bir necha asrlardan buyon saqlanib kelayotgan hunarmandchilik turlarining davom etishiga, asrashga, rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shganlar.

Oila doirasida esa, bu bilimlar qizlarga o'rgatiladi, maktab va kollej darajasida esa ustozlik tizimi orqali mustahkamlanadi. Bu jarayonlar nafaqat hunar o'rganishga, balki

² Avezov, I. "Gilamchilik san'ati va uni rivojlantirish yo'llari". San'at, 2, 2003.

³ Abdixolliqov F. O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi to'plami. Toshkent, 2024.

⁴ Raximova, Z. "Atlas va adras to'qishning an'anaviy maktablari". Xalq amaliy san'ati, 2003.

⁵ Karimova, M. "Zardo'zlik-oltin ipdagi san'at". O'zbekiston ayollari, 2000.



Date: 7th December-2025

ayollarning o'ziga bo'lgan ishonchi, ijtimoiy holati, kayfiyati yaxshilanishiga ham xizmat qiladi⁶.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ayollarning hunarmandchilikdagi faolligini rag'batlantirish borasida ham ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, "Hunarmand" uyushmasi, "Ayollar daftari", "Qishloq ayollarini qo'llab-quvvatlash" dasturlari orqali ularning faoliyatlari qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayollar hunarmandchiligi har qaysi davrda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, ayollar hunarmandchiligi milliy madaniyatimizni, an'anamizni saqlovchilar hisoblanishadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ayollar hunarmandchiligining tarixiy-madaniy asoslarini o'rganish milliy identitetni mustahkamlash, yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash, turizmni rivojlantirish hamda ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu merosni chuqur tadqiq qilish va uni zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish O'zbekistonning madaniy boyligini asrashda strategik vazifa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gulyamov, Ya. O'zbek xalq hunarmandchiligi tarixi. Toshkent: Fan, 1982.
2. Avezov, I. "Gilamchilik san'ati va uni rivojlantirish yo'llari". San'at, 2, 2003.
3. Abdixolliqov F, O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi to'plami. Toshkent. 2024.
4. Raximova, Z. "Atlas va adras to'qishning an'anaviy maktablari". Xalq amaliy san'ati, 2003.
5. Karimova, M. "Zardo'zlik-oltin ipdagi san'at". O'zbekiston ayollari, 2000.
6. Baratova, L. (2008). O'zbek xalq amaliy san'ati tarixi. – Toshkent.
7. Ayupova, Z. (2015). O'zbek kashtachiligi: san'at va an'ana. – Buxoro.
8. UNESCO (2019). Nomoddiy madaniy meros ro'yxati: Atlas-adras to'qish san'ati.
9. Pardaev, A. (2020). O'zbekiston hunarmandchiligining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari. – Samarqand.
10. Halimova, M. (2017). Zardo'zlik san'atida badiiy talqin va maktablar. – Toshkent.

⁶ Baratova, L. (2008). O'zbek xalq amaliy san'ati tarixi. – Toshkent.

